# CHET TILI KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION TEXNALOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.

**Yuldasheva F.F**
*Ilmiy rahbar: O`zDJTU katta o`qituvchisi*
**Davronova Xonzodabegim**
*O'zDJTU 2-bosqich talabasi*

• **Annotatsiya**: Mazkur maqola bugungi zamonaviy jamiyatda chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarining muhim qismi hisoblangan innovatsion texnalogiyalar, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Bundan tashqari chet tilini o'qitishda innovatsion texnalogiyalardan foydalanish usullari ham atroflicha yoritilgan.

• **Аннотация:** Данная статья посвящена внедрению инновационных технологий, которые считаются важной частью мероприятий по дальнейшему совершенствованию системы иноязычного образования в современном обществе. Кроме того, подробно освещены методы использования инновационных технологий в обучении иностранному языку.

• **Annotation:** This article focuses on the implementation of innovative technologies, which are considered an important part of measures to further improve the system of foreign language education in today's modern society. In addition, methods of using innovative technologies in teaching a foreign language are covered in detail.

**Kalit so'zlar:** chet tili, innovatsion texnalogiyalar, usullar, o'yinlar.

**Ключевые слова:** нностранный язык, инновационные технологии, методики, игры.

**Key words:** foreign language, innovative technologies, methods, games.

Mamlakatimizda o'quvchi yoshlarga chet tilini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'rganuvchilarning zamonaviy hamjamiyatda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishlari uchun kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Kompyuter texnologiyasidan foydalanib til o'qitish o'quvchini tilni mukammal o'rganishga va shu bilan birga akt salohiyatini oshirishga ham imkoniyat yaratadi. Shu kabi texnalogiyalardan foydalanish va buni amaliyotga tatbiq qilishdan asosiy maqsad ta'lim sifati va mahsuldorligini oshirishdir.

Hozirgi kunda deyarli barcha ta'lim dargohlarida o'quvchilar kompyuter, cheksiz internet tarmog'i (WiFi) bilan ta'minlangan va bu orqali o'quv jarayonlari yangicha va qiziqarli tarzda o'quvchi yoshlarni darsga jalb qilmoqda. Shu kabi innovatsion texnologiyalarga asoslangan darslar nafaqat lug'at va grammatika o'rganishda, balki chet tilining to'rt aspectini (reading, writing, listening and speaking) o'rganishda ham juda samarali usuldir. Masalan, tinglab tushunish bosqichida kompyuter, CD disklar,

player kabi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnalogiyalarining yana bir muhim jihati shundaki, o'quvchi bir vaqtning o'zida istalgan video roliklarni, filmlarni, teleko'rsatuvlarni, kinolarni va multfilmlarni ham ko'rishlari va eshitishlari mumkin. Qolaversa, internet tarmoqlari video muloqot orqali dunyoning turli burchagidagi ingliz tili ona tilisi bo'lgan insonlar bilan bevosita suhbat qilib, gapirish mahoratlarini yanada rivojlantirish imkoni mavjud. Qo'shimcha tarzda shuni aytish joizki, "Kompyuter grafigidan innovatsion texnalogiya o'laroq foydalanish, mavzuga oid rasmlar chizish yoki ularni tomosha qilish o'quvchilarga o'rganilgan ma'lumotni xotirada mustahkam va uzoq mudattga saqlashga asqotadi"- deydi M.N. Mirzayeva [1, 40-bet]. Darhaqiqat, ma'lumotlarga ko'ra inson xotirasi ko'zi bilan ko'rgan narsasini ko'proq va tezroq eslab qolar ekan. Bundan tashqari o'qitishning bir qancha turlari bor, masalan, o'yin o'ynash orqali o'quvchining diqqatini va qiziqishini yanada kuchaytirish va faolligini oshirish. Bunda o'quv predmeti asosiy vazifa qilib olinadi, albatta. Misol uchun o'quvchilarni guruhlarga ajratib, har xil qiziqarli va bolaning bilim salohiyatiga mos savollar berib bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini va ilm olishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish mumkin. Hozirda bizning yurtimizda ham ko'plab pedagoglar zamonaviy til o'rganishda AQSh tajribalariga tayangan holda bir qancha innovatsion texnalogiya va usullardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etmoqdalar. Quyida ana shunday usullardan na'munalar keltiriladi:

•-“Quiz kartochkalari” (“Quiz cards”) o`quvchilarning har biriga o'qituvchi tomonidan tarqatiladi va o'quvchilar keltirilgan savollarga birma bir javob berishadi bu ham vaqtni tejaydi ham barcha o'quvchilarni darsda ishtirok etishlarini ta'minlaydi.

•-“Issiq kartoshka” (“Hot potatoe”) o'qituvchi va barcha talabarni qamrab oladigan o'yinlardan biridir. Bunda kartoshka kimga uloqtirilsa o'sha odam zudlik bilan berilgan savolga javob berishi kerak bo'ladi, bu esa o'quvchini tez fikrlashga va darsga qiziqishiga yo'l ochib beradi.

•-“Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun turli xil o'yinlardan va mashqlardan foydalanish.

•-“Rasmlar so`zlaganda” bu usul ham juda samarali usullardan biri bo`lib, u o`quvchilar og`zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan, buning uchun mavzuga xos bo`lgan rasmlar tanlanib, so`ng ularni tasvirlashga o`tiladi [2,251-bet].

Xulosa qilganda, chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rgatish va o'rganishda innovatsion texnalogiyalarni va usullarni qo'llash yordamida o'quvchining fikrlash qobiliyatlari kengayadi, nutqi ravonlashadi, ilmga bo'lgan chanqoqligi yanada oshadi. Innovatsion texnalogiyalardan unumli va to'g'ri yo'lda foydalanib, Buxoriylar, Termiziylar, Ibn Sinolar singari buyuk, dunyoga dong taratgan allomalarni voyaga yetkazgan yurtimizdan yana shunday kelajagi porloq yosh avlodni tarbiyalashda va o'qitishda o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.M.N.mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40-bet.

2.O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) -T. "Sharq". 2003, 251-bet.

3.Муминова, Ф. М. "Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish" № 18,2020, 308-bet.